

UDK: 32.(327)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI

Sherzod Kuchkarov

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillik yillarida yoshlarga oid davlat siyosati tarixi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Ma'furaviy immunitet, yoshlar, davlat siyosati, tizim, tarmoq.*

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o'zgarishlar zahirida har tomonlama barkamol – jismonan sog'lom, aqlan yetuk, nafaqat ko'plab bilimlarni, hozirgi davrda talab katta bo'lgan kasb-hunarlarini egallagan, ayni paytda, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to'g'risida g'amxo'rlik qilishdek ustuvor maqsad mujassam ekani tabiiydir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham – bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajagimiz egalaridir.

O'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratib berish borasida olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlar xalqimizga xos xususiyat bo'lib, milliy tabiatimizning uzviy qismiga aylangan. Har bir oilada, har bir mahallada, eng avvalo, yoshlarning salomatligini ta'minlash, ularga yaxshi bilim berish, ayni paytda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlariga ega munosib shaxslar etib voyaga yetkazish azaldan muhim masala bo'lib kelgan. Mustaqillik yillarida ushbu vazifalar O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va bu esa barcha sohalarda yuksak yutuqlarga erishish imkonini bermoqda. Chunki, mamlakatdagi o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni shakllantirishda yoshlar asosiy yetakchi kuch bo'lmoqda. Shuning uchun ham O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy holati, o'tish davrida respublika yoshlarining intilishlari, muammolari hamda O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishda ularning ishtirokini yoritish masalasi dolzarblik jihatini ko'rsatib beradi.

Aynan shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy sohadagi islohotlarni amalga oshirishda tutgan o'rni masalasini aniq tarixiy faktlar asosida ko'rsatib berish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu risola O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati, qonuniy asoslari, uning amalga oshirilishi, maqsad va vazifalariga bag'ishlangan bo'lib, mazkur mavzuni o'rganishda O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan siyosatshunos, huquqshunos, falsafa, pedagogika, iqtisod, sotsiologiya, tarixchi va boshqa gumanitar fan vakillarining yoshlar masalasiga oid keng qamrovli tadqiqotlarni olib borishda xizmatlari katta bo'ldi. O'zbekistonda

mustaqillik yilarida o'rta-maxsus ta'lim va mutaxassis kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, sanoatni rivojlantirishda ishchi yoshlar, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yoshlarning ishtiroki masalalarini muayyan bir jihatlarini tadqiqotchilardan A.R. Hakimov, S.U. Sulaymonova kabilar tarix fani nuqtai-nazaridan tahlil qildilar[1]. SHu bilan birga, D.G'ulomova, D.B.Bobojonova, A.Mavrulov, I.S.Saifnazarov, X.Tojiboeva kabi olimlarning ilmiy ishlari yoshlarda tarixiy xotiraning rivojiga, siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy omillar ta'siri masalalarini o'rganishda ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda[2].

Jumladan, jamiyatdagi keng miqyosli o'zgarishlar iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va mafkuraviy islohotlar jarayonida yoshlar faolligini oshirish, yoshlar ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirishda madaniy merosning o'rne, demokratik jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida yoshlarni ijtimoiy hayotida kechayotgan o'zgarishlarga e'tibor qaratgan tadqiqotchilar Gayupova SH., Kalonov K., Ismailova R., SHayxova X., G. Tillaeva kabilar masalani falsafiy jihatdan tahlil qilgan[3].

Yoshlarni ijtimoiy hayotda tutgan o'rne, yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalarini B. Djambakiev, M. To'lyaganova kabi tadqiqotchilar huquqshunoslik nuqtai-nazardan o'rgangan[4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizning barqaror taraqqiyotida, xalqaro maydondagi obro'-e'tiborining yanada yuksalishida, amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligida yosh avlodga berilayotgan e'tibor muhim o'rin tutadi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning hayotimizning boshqa sohaları bilan o'zaro chambarchas bog'langan holda, tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan strategiyasi belgilab olindi.

“Hozirda O'zbekiston aholisining 64 foizini yoshlar tashkil qilgan holda, 17 million 80 ming nafarini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qilib, o'zligini, tarixini chuqur bilgan, idrok qilgan, undan xolis xulosa chiqara olgan, bugunning talablarini to'g'ri tushungan va mohiyatini anglagan yoshlar O'zbekiston kelajagining mustahkam poydevoridir”[5]. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi - yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

Hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasida jami 22 ta qonun, 16 ta Prezident farmoni va 10 qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 41 ta qarori, 32 ta idoraviy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan[6].

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda O'zbekistonda yaratilgan ta'lim tizimi dunyo e'tirofida. Toshkent shahrida 2012 yil 16-17 fevral kunlari “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu

konferensiyada 8 ta nufuzli xalqaro tashkilot va 48 davlatdan 270 nafar ishtirokchi qatnashdi. Ularning barchasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida yurtimizda amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishib, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, oliy o'quv yurtlarida bo'lib, O'zbekistonda ta'lim sohasida shakllangan samarali modelni yuksak baholadilar, bu borada to'plangan tajribalarni boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida tavsiya etish mumkin, degan xulosaga keldilar. Fransiyaning nufuzli "Insead" xalqaro biznes maktabi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) tomonidan tayyorlanib, shu yilning 3-iyulida e'lon qilingan "2012-yildagi innovatsiyalarning global indeksi" deb nomlagan tahliliy ma'ruzada O'zbekiston 141 ta mamlakat ichida Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston ushbu reytinglar ro'yxatida 75,38 ball bilan dunyoda ikkinchi o'rinni egallagan. Birinchi o'rinni esa 75,70 ball bilan Irlandiya band etgan. Aytish kerakki, bir paytlar umumbashariy rivojlanishdan chindan ham chetda qolib ketgan xalqimiz o'tmishning achchiq tajribasidan to'g'ri saboq chiqarib, mustaqillik yillarida ilm-ma'rifatga, intellektual taraqqiyotga intilish, yoshlarimizni aynan shu ruhda tarbiyalash masalasini o'zi uchun eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olgani va bu borada ulkan amaliy samaralarga erishayotgani tufayli bugungi kunda O'zbekiston jahon taraqqiyotining oldingi saflariga chiqib bormoqda. Buni yuqorida zikr etilgan reyting natijalari ham yaqqol isbotlab turibdi.

Yurtimizda ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. 2014 yilda hammasi bo'lib 540 dan ziyod obyekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi[7]. 2011-2016 –yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim dargohlarida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O'zbekiston Milliy universitetida yangi o'quv binolari barpo etildi.

Ta'lim sifatini oshirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqishda oliy o'quv yurtlari o'rtasida sog'lom raqobat va musobaqa muhitini shakllantirish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasining "Respublika oliy ta'lim muassasalari reytingini baholash tizimini joriy etish to'g'risida" gi qaroriga muvofiq 2013 yilning 1-yanvaridan boshlab mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari faoliyatini baholashning reyting tizimi joriy etild[8]. Oliy ta'lim muassasalari reytingi Davlat test markazi tomonidan aniqlanadi. Tahliliy ma'lumotlar oliy o'quv yurtining qanday rivojlanayotgani to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish bilan birgalikda yuqori malakali kadrlar tayyorlash darajasi hamda sifatini yanada oshirish bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa va takliflar. Mustaqillik davrining zarvaraqlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning har bir kuni yangiliklar, rivojlanishlar bilan kechganligiga guvoh bo'lamiz. Yurtboshimizning insoniylik va ezgulik tamoyillari bilan sug'orilgan ilg'or qarashlari va sa'yi-harakatlari natijasida mustaqillik yillarida yurtimiz barcha sohalarda ulkan marralarni qo'lga kiritib kelmoqda. Har tamonlama barkamol, chuqur bilim, mustahkam e'tiqod va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan yosh avlodni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va sportning o'rni juda muhim.

Har qanday mamlakatning ertangi kuni, kelajak taraqqiyoti birinchi galda o'z xalqining, yoshlarining jismoniy va ma'naviy kamoloti bilan o'lchanadi. Hozirda davlatlar o'rtasidagi o'zaro musobaqa, kuch-qudratini namoyon etish bellashuvi, asosan ikki yo'nalishda - sport va jismoniy tarbiya hamda aql-zakovat, ya'ni intellektual faoliyat sohasida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy ta'bir bilan aytganda, xalqning jismoniy-intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, bu borada tegishli zaxiralarni shakllantirish XXI asrda taraqqiyot va yuksalish kafolatiga aylanib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Хакимов А.Р. Ўзбекистон саноатни ривожлантиришда ишчи ёшлар. Тарих фан. номз. дисс.... - Тошкент: ЎЗРФА Тарих институти, 1993. -164 б.; Сулаймонова С.У. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда ёшларнинг иштироки. Тарих фан. номз. дисс. ... - Тошкент: ЎЗМУ, 1994. -165 б.;

2. Ғуломова Д. Тарихий хотира ва ёшлар. - Тошкент, 2001, 18 октябрь.; -125 с.; Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. - Тошкент: Фан, 1995. - 94 б.; Маврулов А Маънавий баркамол инсон тарбияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2008. - 80 б.; Саифназаров И.С. Иқтисодий ва маънавий манфаатлар уйғунлиги ва баркамол инсон тарбияси. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. - 166 б.; Тожибоева Х. "Ватан тарихи"ни ўқитиш жараёнида талабаларни маънавий тарбиялаш воситалари. // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари, - Тошкент,

3. ¹ Гаюпова Ш., Калонов К., Исмаилова Р. Ўзбекистон ёшларида дунёқараш уйғунлигининг шаклланиши муаммолари. - Тошкент: Тошкент ислом университети, 2004. - 112 б.; Шайхова Х.,Тиллаева Г. Соғлом турмуш тарзи ва ёшлар камолоти. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2008. - 60 б.; Тиллаева Г. Ижтимоий ҳимоя-долзарб масала (Ёшлар тарбияси мисолида). // Фалсафа ва ҳуқуқ. -Тошкент, 2007. - № 2 - Б. 30.

4. ¹ Джамбакиев Б. Ёшларга оид давлат сиёсатининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштиришнинг айрим масалалари // Фалсафа ва ҳуқуқ. - Тошкент, 2007. - № 2 - Б. 57-58.; Тўляганова М. Ҳуқуқий фуқаролик жамиятида талаба ёшларни тарбиялаш масалалари. // Ўзбекистонда фалсафа ва ҳуқуқ фанлари ривожининг истиқболи. - Тошкент, 2007. - Б. 94.

5. Tarixiy xotira va inson omili-buyuk kelajagimizning garovidir.O'quv qo'llanma.- T.:”O'qituvchi”,2012.B.97.

6. ¹ O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari mavzusidagi II Respublika ilmiy- amaliy konferensiyasi materiallari.T.:2015.B.36
7. I.Karimov.Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oily saodatdir.T.:”O'zbekiston”.2015.B.236.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika oily ta'lim muassasalari reytingini baholash tizimini joriy etish to'g'risida”gi qarori.\ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.1-son.10-modda.-T.:2013